

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

AT "Aloqabank" faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi

Joriy yilning 21 may kuni AT "Aloqabank" tomonidan yoshlarning biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb qilish borasida amalga oshirilgan ishlar mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Bugungi kunda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, ularga samarali, qulay va raqobatbardosh sharoitlar yaratish hamda ushbu jarayonda ularga kredit mablag'larini ajratish masalasi bank faoliyatidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2021 yilning o'tgan davri mobaynida 170 nafarga yaqin yosh tadbirkorlarga 253,0 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilib, ajratilgan kreditlar hisobiga 150 dan ortiq yoshlarni ish bilan bandligi ta'minlandi.









